



INTELLEKT

2022-YIL – INSON QADRINI
ULUG'LASH VA FAOL
MAHALLA YILI

IJTIMOYIY-TA'LIMIY, MADANIY-MA'RIFIY GAZETA

2020-YIL 2-SENTABRDAN CHIQA BOSHLAGAN

2022-YIL, 31-MAY № 10(42)

E-MAIL: INTELEKTPRESS@UMAIL.UZ

OILAVIY AJRIMLAR SONI KESKIN OSHISHIGA NIMA SABAB BO'LMOQDA?



Oila mustahkamligi jamiyatning taraqqiyoti bilan bog'liq. Davlatimiz tomonidan oilaviy ajrimlar masalasiga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

Albatta, kundalik hayotimizda oilaviy ajrimlarga sabab bo'layotgan turli omillar mavjud. Masalan, ajrimlarning eng muhim sabablardan biri, bu – ikkala tomon bir-birlarini yaxshi bilmay oila qurishidiri yoki kelin-kuyovning turmushga tayyor emasligi, mehnat qilishga o'rganmaganligi, sabr va iroda bilan yengish mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga toqat qilmasligidir.

Bugungi kunda mahalla fuqarolar yig'inlaridagi notinch va muammoli oilalar ro'yxati shakllantirilgan. Er-xotin, qaynona-kelin, qaynona-kuyov va oilaning boshqa a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida har bir taraf bilan sudga qadar mahalla oqsoqollari va faollari alohida suhbat olib borib, muammolarning tub mohiyati aniqlanmoqda. Notinch oilalar murosaga keltirilib, ularga mahalladagi namunali oilalarda murabbiylar birlashtirilmoqda.

Biroq, afsuski, oilaviy ajrimlarning soni oxirgi vaqtlarda keskin oshishiga boshqa omillar ham ta'sir qilmoqda. Chunonchi, oilani saqlab qolish uchun qilingan barcha harakatlarning natija bermaganidan so'ng, er yoki xotin sudga nikohdan ajratish haqidagi da'vo ariza bilan murojaat qilmoqda.

2018-yil 3-yanvarda qabul qilingan «Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunga binoan Oila kodeksining 40-moddasi «Sud er-xotiga yarashish uchun muhtal tayinlab, ishning ko'rilishini keyinga qoldirgan taqdirda, er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashitirish komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashitirish komissiyasini er-xotini yarashitirish bo'yicha tegishli choralar

korish uchun uch kundan kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi kerak», degan mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirildi. Bu to'ldirish oilaviy ajrimlarning oldini olishga, ayniqsa, yosh onalarning huquqlarini ta'minlashga, farzandlarning kelajagi uchun xizmat qiladi.

Xalqimiz bolajon va oilaviy qadriyatlarini hurmat qiladi. Ikki yoshning boshini qovushtirib, bir oilani barpo qilish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun ota-onalar, yoshi ulug'lar ko'pdan ko'p maslahat va sa'y-harakatlar qilishadi. Biroq yosh er-xotin o'rtasidagi arziyas gap-so'zlar va asossiz vajlar tufayli guldek oilaning barbot bo'lishi, farzandlarning yetim qolishi achinarli hol.

Shuning uchun ota-onalar, tegishli mahalla fuqarolar yig'inlari vakillari, oila va xotin-qizlar bo'limlari bu masalaga hamisha mas'uliyat bilan yondashsalar, muqaddas oila qo'rg'oni hech qachon darz ketmaydi.

O'z muxbirimiz.

XORIJIY TILLARNI BILISH NEGA KERAK?

Ma'lumki, til har bir jamiyatning ko'riki, ko'zgidir. Jamiyat tez sur'atlarda globallashtirib borayotgan bu davrimiz bizdan nafaqat o'z tilimizni, balki chet tilini bilishimizni ham taqozo etmoqda. Negaki, bugungi kunda chet tilini bilish muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmasdan, butun davr talabiga ham aylanmoqda. Ayni paytda yurtimizda ham ingliz tilini bilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning zamirida ingliz tili nafaqat Angliyaning, balki butun dunyo tiliga aylanayotganligi turibdi desak, mubolag'a bo'lmaydi, albatta.

Fikrlarimizning isboti sifatida yurtboshimizning quyidagi gaplarini ta'kidlash o'rinni: "Endilikda IELTS sertifikatini yo'qlar magistraturaga kira olmaydi. Kelgusi yildan boshlab magistratura va doktorantura o'qishga kiruvchilarga

chet tilini bilish xalqaro sertifikatiga ega bo'lish talabi kiritiladi. Davlat idoralari ishga qabul qilish va yangi lavozimga tayinlashda ham xorijiy tilini bilish majburiy bo'ladi".

Buning natijasi o'laroq bugungi kunda yoshlarimiz (ayniqsa talabalar)dan har to'rttadan ikkitasi xorijiy tilni o'rganish uchun bel bog'lagan. Hech bo'lmaganda tilga befarq emas. Xorijiy tillarni o'rganish bizning kelajakda barkamol va yetuk shaxs bo'lib yetishishimizda muhim ahamiyatga ega. Chunki hayotimizdagi har bir texnika tarmoqlarimiz ham ingliz tilida. Axborot asrida yashayotgan bir paytda til bilmasak, biz ulardan unumli foydalana olmas ekanmiz.

➡ Davomi 2-betda

Masofaviy ravishda kompyuterlar orqali ma'lumotlar almashishni ko'zlagan holda internetni 1969-yili ixtiro qildilar. Ammo 1990-yillarga kelibgina u ko'plab davlatlarda aholi orasida ommalashdi.

Zikr etilgan yillardan oldin ham hayot bor edi, insonlar yashashda davom etayotgandi, to'g'rimi? Lekin internet inson hayotining bir qismiga aylanib olgach, turmushning barcha omillari bilan uzviylik kasb etdi. Shu asnoada hayotni undan ayro tarzda tasavvur eta olmaslikka o'rgandik.

Albatta, internet o'z afzalliklarini isbotlab bo'ldi va insoniyatning bundan keyingi avlodlari ham undan voz kechmasligi tayin. Ammo boshqa sabablar bilan butun olam internetsiz qolish xavfi yo'q, deb bo'lmaydi. Masalan, global talafotlar, tabiat hodisalari, quyoshdagi kuchli chaqnashlar zarrachalar ta'siri va radiatsion muhiti o'zgartirib, yerdagi barcha elektr energiyani o'chirib qo'yishi mumkin. Kichik bir misol: 1859-yili Angliyaning Karrington qishlog'ida magnit bo'roni bois mahalliy elektronika ishdan chiqqan.

INTERNETSIZ HAYOT YO'Q (MI?)

Tasavvur qiling, agar qandaydir sabab bilan internet tarmog'i uzilsa, nima bo'ladi? Avvalo, yaqinlari bilan tarmoq orqali hol-ahvol so'rashga odatlangan kishilarni xavotir chulg'ab oladi. Mobil telefon orqali ham aloqaga chiqa olmaydi, chunki operatorlik xizmatlari-da butun jahon tarmog'i orqali ishlaydi. Ko'pchilik shahar telefonidan foydalanishga urinadi va aloqa tarmog'ida yuqori darajadagi bandlik yuzaga keladi. Xat-xabar almashish maqsadida esa an'anaviy pochtaga murojaat qilindi va bu jarayonda juda katta navbat hosil bo'ladi. Zarur xabarlar vaqtda yetib borishi sekinlashadi, chunki pochta xizmati bariga teng ravishda ulgura olmaydi. Binobarin, elektron pochta lar an'anaviy pochta larini ishini yengillashtirib, qog'oz ko'rinishidagi maktublarning egasiga vaqtda yetib borishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.



Agar internet dabdurdurstan o'chib qolsa, bu iqtisodiyot uchun katta talafotdir. Chunki internetsiz nafaqat messenjerlar, balki onlayn bank ilovalari ham ishlamay qoladi. Shunda onlayn to'lovlar va pul o'tkazmalari bekor bo'lib, mijozlar o'z-o'zidan yo'qolib ketadi.

Zero, plastik kartadagi pulni naqdlashtira olmasiz – bankomatlar ham butunjahon tarmog'i orqali ishlaydi. Demak, ko'plab kompaniyalar internetsiz umuman faoliyat yuritib olmaydi. Elektron pochta bilan bog'liq bizneslar ham inqirozga yuz tutadi.

➡ Davomi 2-betda

FAYZLI MASKAN ZAMONAVIY VA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLAYDI



Jumladan, 2021-yilning sentabr oyida foydalanishga topshirilgan 6-binoda ham ta'mirlash ishlariga davlat budjetidan 25 milliard so'm mablag' ajratildi va davlat buyurtmachisi respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan barcha moliyaviy va tashkiliy ishlar talab darajasida amalga oshirildi. Qurilish ishlar tender asosida "Stroy Grand Servis" MCHJ bunyodkorlari tomonidan yakuniga yetkazildi.

rektorati, Zoonjeneriya fakulteti hamda o'quv va ilmiy-laboratoriyalar joylashgan. Yuqorida ta'kidlangan budjet mablag'lari faqat qurilish-ta'mirlash ishlariga emas, balki zamonaviy laboratoriya jihozlari uchun ham taqsimlangan. Jumladan, bugun binoda faoliyat ko'rsatayotgan 8 ta ilmiy laboratoriya va Zoonjeneriya fakulteti tasarrufidagi 6 ta o'quv laboratoriyasi professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlar, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlarni

Bunyodkorlik ishlarini birgina

Samarqand Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti miqyosida biroz tahlil qilishga intilamiz.

So'nggi 4 yil davomida Universitetning o'quv jarayonida, ilmiy izlanishlarda, shuningdek, bunyodkorlik ishlarida katta o'zgarishlar amalga oshirilayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Tarixan qisqa muddat hisoblangan bu davr mobaynida oliy o'quv dargohi qayta tashkil etildi, oyoqqa turdi, mamlakat iqtisodiyoti uchun zarur mutaxassislarni tayyorlab bermoqda, qolaversa, o'z o'rnini va nufuziga ega bo'ldi, endi esa institut maqomini oshirilib, shaxsan Prezidentimiz tashabbusi va hukumatimiz ko'magida Universitetga – yirik o'quv markaziga aylantirilmoqda.

Samarqand Veterinariya meditsinasi institutida (sobiq) o'quv-ilmiy va laboratoriya, klinika korpuslari hamda mavjud yotoqxonalar 2018-yil davlat Dasturiga asosan (37-03 – sonli Prezident qaroriga ko'ra) mukammal ta'mirlash ishlari boshlangan edi.

2019-yilda boshlangan pandemiya munosabati bilan ishlar biroz ortga surildi, ammo nihoyasiga yetkazildi.

taqdim etmoqda. Negaki, endilikda aksariyat muhim tajribalarni mazkur laboratoriyalarda amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Yaqinda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Bosh prokuratura, Moliya vazirligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tomonidan mazkur yangi o'quv binosi yana ekspertizadan o'tkazildi.

➡ Davomi 2-betda

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Ta'lim tizimida yaratib berilayotgan keng sharoitlar natijasi o'laroq, bugungi kunda undagi erishilayotgan yutuqlarni jahon hamjamiyati katta mamnuhiyat bilan e'tirof etmoqda. Jumladan, o'zbek tiling "Davlat tili" maqomini olishi, milliy ona tilimizning izchil taraqqiy etishiga mustahkam asos va poydevor bo'lmoqda. Tilga bo'lgan e'tiborning natijasida tilshunoslik va adabiyotshunoslikning barcha tarmoqlarida katta-kichik ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgan fikrimizning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-f-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasida" da belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-yil 31-may kuni "Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o'tkazilishi rejalashtirildi. Mazkur anjuman tillararo aloqani mustahkamlash, milliy til qonuniyatlarini aniqlash, adabiyotshunoslikdagi muhim o'zgarishlarni tadqiq va talqin etilgani bilan ham qimmatlidir. Anjuman doirasida yalpi majlis va o'ziga xos sho'balar ishi rejalashtirildi.

Sho'balarda zamonaviy tilshunoslik va uning yo'nalishlari borasidagi qarashlar haqida ma'lumotlar berilgan. Har bir sho'ba o'zining ilmiy va nazariy qarashlariga boy ekanligi



Sistem va struktur tilshunoslik muammolari Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari Kognitiv, pragmatik tilshunoslik masalalari Zamonaviy tilshunoslikda matn nazariyasi va ta'lim uslubiyati masalalari Til va adabiyot nazariyasi

yuqoridagi sho'balarning nomlanishidan ham ma'lum. Ma'lumki, til tizimi va lisoniy faoliyatni har tomonlama tadqiq qilish, ularga xos hodisalarning belgi-xususiyatlarini batafsil yoritish uchun tilshunoslikning turli sohalarini birlashtirish, ularning barchasi uchun bir xilda tayanch nuqta vazifasini bajarishi lozim.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikda lisoniy hodisalarni tilshunoslik va boshqa ilmiy soha bilan birgalikda tadqiq qilinishi dolzarb bo'lib bormoqda. Zero, bu kabi yondashuvlar til birliklarini bir sathda emas, balki yetarli darajada chuqurroq o'rganish, ilmiy bilimlar va yangi faktlar bilan boyitish orqali turli jihatlarni ochib berish imkonini beradi.

Tadqiqotlarga ko'ra shu kabi yondashuvlar natijasida zamonaviy tilshunoslikda bir qancha yo'nalishlarning, jumladan, derivatsiya, psixolingvistik, etnospsixolingvistik, sotsiolingvistik va boshqa ilmiy sohalar vujudga keldi. Bu sohalar bugungi zamonaviy tilshunoslikning taraqqiyoti uchun, uning rivoji uchun asosdir.

Maftuna Xolova, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti.

FAYZLI MASKAN ZAMONAVIY VA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLAYDI

Boshlanishi 1-betda

Telekommunikatsiya, suvoqova va bino fasadida aniqlangan ayrim kamchilik va nuqsonlar butunlay bartaraf etildi va bugungi kunda bu bino to'liq foydalanib kelinmoqda.

Ayni kunda Universitetning boshqa hududlarida ham qurilish-ta'mirlash, bunyodkorlik ishlari olib borilayotganiga guvoh bo'lish mumkin. "2022-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 22-yanvardagi qarorga asosan, Universitet bosh binosi, talabalar turar joyida ham joriy yil davlat Dasturiga asosan mukammal ta'mirlash ishlari boshlandi.

Samarqand Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti Respublika Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tasarrufidagi oliy ta'lim muassasasi bo'lib, hudud-dagi barcha bunyodkorlik ishlari aynan davlat qo'mitasi boshchilik qilmoqda. Barcha tashkiliy va moliyaviy ishlar, tender o'tkazish, pudratchilarni tanlash kabi ishlar qo'mita tomonidan olib borilmoqda va nazorat qilinmoqda. Mazkur ijtimoiy obektlarga davlat budgetidan – bosh bino uchun 22,8 milliard so'm, talabalar turar

joyi uchun esa 9,179 milliard so'm atrofida-gi mablag' yo'naltirildi.

Yangi 2022-2023 o'quv yili boshlanish oldidan ikkala obekt ham foydalanishga topshirilishi kutilmoqda. Hozirgi kunda bosh binoda ta'mirlash ishlari 65 foiz, qizlar yotoqxonasidagi ishlar 85-90 foiz amalga oshirilgan. Eski binolar zamonaviy loyihalarda asosida qayta ta'mirlanmoqda. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish Davlat qo'mitasi hamda Samarqand viloyat hokimligining mas'ul sektorlari tomonidan hududda olib borilayotgan qurilish va ta'mirlash ishlari muntazam nazorat qilinmoqda. Universitetda amalga oshirilayotgan bu qurilishlar birgina viloyat miqyosidagi emas, respublika darajasidagi obektlardir.

Ta'lim maskani maqomi oshirilgach, mutasaddillar zimmasiga yangi topshiriq va vazifalar yuklatildi, yangi maqsadlar qo'yildi. Davlat budgetidan Universitet moddiy texnik bazasini yangi imkoniyatlar bilan kengaytirish va ta'mirlash uchun yana 200 milliard so'm mablag' ajratildi. Samarqand Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti yaqin kelajakda xorijning eng ilg'or oliyog'haridan qolishmaydigan zamonaviy kampusga ega bo'ladi. Jumladan, 14 gektar yer maydonini egallagan Universitet hududida 2023-yildan boshlab laboratoriya va klinika


korpusi kengaytiriladi, yangi texnopark quriladi, shuningdek, 2024-yildan boshlab, hududdagi eski 2 qavatli bino o'rniga 1200 talabaga mo'ljallangan yangi o'quv binosi quriladi. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida 2022-yildan boshlab hududda 2 ta 400 o'rinli talabalar turar joyi qurilishi ham reja-ga kiritilgan. Ayni kunda respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan mazkur ishlar uchun 4 ta loyiha taqdim etilgan va bu loyihalar o'rganilmoqda.

Bu o'zgarishlar Universitetni nafaqat respublika miqyosidagi, balki mintaqamizdagi zamonaviy o'quv markaziga aylantirishni nazarda tutadi. Demak, jamiyat hayotidagi o'zgarishlar faqat tashqi tomondan emas, balki mohiyatan yuz bermoqda. Bunday yirik, zamonaviy va nufuzli oliyog'har tomonidan tayyorlanadigan mutaxassislar ham bilimli, malakali, va albatta, raqobatbardosh bo'lishi kerak.

Barcha intilishlarimiz va harakatlarimiz ana shu maqsadga yo'naltirilgan.

Xudaynazar Yunusov,
Veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar
Universiteti rektori, professor.

INTERNETSIZ HAYOT YO'Q(MI?)



Boshlanishi 1-betda

2011-yili Misrdan ommaviy tartibsizlik sabab internet 5 kunga o'chib qoldi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining xabar berishicha, bu mamlakat uchun ancha qimmatga tushdi. Atigi 5 kunlik muddat kuniga 18 million dollarni yo'qotishga olib keldi. Hukumat umumiy 90 million dollar miqdorida moddiy zarar ko'rdi.

Global tarmoqsiz yashagan taqdirda ta'lim sifati ham tushib ketadi. Masofaviy darslar, elektron kitoblar, webinarlarning

yo'qligi insonlarning bilim darajasi, tafakkur o'tkirligini sayozlashtirib yuboradi. Kadrlar qulay ravishda malaka oshirish imkoniyatidan mahrum bo'lib, o'z ustilarida ishlashdan to'xtaydilar, xorijiy tajriba jabhasi oqsoqlikni boshdan kechiradi.

Internetsizlikning yana bir asorati – ishsizlik. Guvohi bo'ldingizki, koronavirus pandemiyasi paytida ko'plab ish joylari masofaviy mehnatga o'tdi. Agar onlayn ishlab chiqarish imkoniyati bo'lmaganida, ahvolni o'zgingiz tasavvur etavering. Odamlar ishsiz va pulsiz qolib ketar edi yoxud karantin qoidalarini qat'iy o'rnatilmagan holda kasal-

lanish ko'rsatkichlari tubdan oshar edi. Hech bir yurtning tibbiyoti bunday sharoitda ishlashga tayyor emas.

Masofaviy ishlash, o'zini o'zi band qilish tamoyillarining mavjudligi barcha davlatlarda ham ishsizlik ko'rsatkichlarini pasaytirdi. Ayniqsa, nogironligi bor, imkoniyati cheklangan shaxslar ham axborot-kommunikatsiya vositalari orqali mehnat qilishga, o'zining kunini o'zi ko'rishga o'tishi ijtimoiy himoyani bir muncha yengillashtirdi. Ha, kambag'allik holatlarini qisqartirish yechimi ham internetga borib taqaladi.

Internet yo'q bo'lsa, ishsizlik, pulsizlik, ruhiyatdagi buzilishlar bora-bora jinoyatlarni keltirib chiqaradi. Hayotda o'rni topishga qiyin, daldaga muhtoj, tobora kambag'allashib borayotgan insonlar qing'ir yo'llar orqali pul topishga o'tadilar. Internetsiz yashash odamlar hayotini qiyinlashtirib yuborgani bois ularda tajovuzkorlik oshib ketadi va bir-birlariga hurm qilishga moyil bo'lib qoladilar.

Mutaxassislarning ma'lum qilishlaricha, faqat global talafotlar va kuchli darajadagi tabiat hodisalariga internetni dunyo bo'ylab batamom o'chirib qo'yishi mumkin. Bu kimningdir xohishi yoki qarori bilan amalga oshadigan ish emas. Misol uchun, xakerlik guruhlari ommaviy ravishda internetni uzishga uringarlari bilan mahalliy tarmoqlar saqlanib qoladi. Bundan tashqari, qasddan uzilgan internetni qayta ulash choralari oson bo'ladi. Hayotni internetsiz tasavvur qilib ko'rish esa uning afzalliklarini chuqurroq anglashga yordam beradi va global tarmoqdan unumli foydalanishga undaydi.

O'tkir Burxonov,
Samarqand davlat chet tillar
instituti Roman-german tillari
fakulteti dekani o'rinbosari.

XORIJIY TILLARNI BILISH NEGA KERAK?

Boshlanishi 1-betda

Xorijiy tillarni bilishimiz o'z kelajagimiz uchun qurgan ko'prigimizdir. O'zimiz tanlagan kasbimiz birinchi eshik bo'lsa, ingliz tilini bilishimiz biz uchun ikkinchi eshik demakdir. Bu eshiklar, shubhasiz, farovon va to'kin hayotimiz uchun xizmat ko'rsatadi. Negaki, ingliz tilini o'rganish bu foydali va u o'zimizga nisbatan ishonchni beradi. Bundan tashqari, har bir mashhur insonlarning kitobi ingliz tilida yozilgan yoki tarjima qilingani hech birimizga sir emas. Sababi ingliz tilida juda ko'p ajoyib kitoblar bor. Ularni o'qish uchun ham biz ingliz tilini o'rganmoq'imiz kerak.

Qaysi davlatga bormaylik, bizga qo'l keladigan asosiy til

ham ingliz tili. Eng ko'p murojaat qilinadigan til sifatida bu tilni bilish orqali har qanday davlatda yashash, o'qish va ishlash mumkin. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ingliz tili bugungi kun dunyoning mulqot vositasiga aylaniy bo'ldi.

Qolaversa, bu tilni o'rganish bizga juda ko'p ishlar qilishimiz mumkinligini ko'rsatadi. Avvalo, bu til bilan biz butun dunyo madaniyatini bilishimiz mumkin bo'ladi. O'zbekistonlik bir tengdoshimiz ingliz tilining naqadar keng imkoniyatlar kaliti haqida gapirar ekan, jumladan, quyidagilarni alohida aytadi: "Meni bor yo'g'i ingliz tilini bilganim sababli

katta korxonaga ishga qabul qilishdi, O'zbekiston bo'yicha eng kuchli 5 ta xalqaro institutlardan biriga grant asosida o'qishga kirganman, 2 marta bepul sayohatga chiqib kelganman". Quvonarlisi, bu hali hammasi emas.

Shu o'rinda ingliz tilini endi o'rgana olmayman, chunki yoshim ancha katta, uni kichiklikdan o'rganish kerak edi, kabi miyamizga singib ketgan yot g'oyalimiz bor. Shuni unutmaginki, o'rganishga hech qachon kech bo'lmaydi! Asosiy, kelajakda o'rganilgan tildan foydalanishni bilish emasmi?! Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun juda muhimdir. Yaxshi o'zlashtirish uchun esa ingliz tilini sevib, sezgirlik muhitida o'rgatish kerak bo'ladi. O'ylaymanki, bu samarali o'rganishingiz uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Demak, biz ham aynan mana shu til bilan eng yaxshi lavozimlardan birida ishlashimiz va eng ko'p maosh olishimiz mumkin ekan. Biznes bilan shug'ullanuvchilar uchun esa bu til ajoyib imkoniyatni taqdim etadi, chunki xalqaro biznes aynan ingliz tilida olib boriladi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganish zamonaviy yoshlarimiz ta'bir bilan aytganda "moda"ga aylangan.

Ingliz tilini o'rganib farovon va baxtli hayotga erishish mumkin. Bu esa bizning azaliy orzumiz. Shunday ekan, bugundan hayotingizni ingliz tili bilan bog'lay va yuqoridagi singari cheksiz imkoniyatlardan foydalanib, yuksak kelajakni bunyod eting, azizlar!

Gulsanam Botirova,
Samarqand davlat chet
tillar instituti talabasi.

CHET TILLARNI O'QITISHDA DOLZARB MUAMMOLAR, INNOVATSIYALAR, AN'ANALAR, YECHIMLAR VA BADIY ADABIYOTLAR TAHLILI



Ilm-fan buyuk havas, ishtiyoq va shiddat bilan olg'a yurishni talab qiladi. Har bir jamiyatning istiqbolli ta'lim tizimi bosqichlarining o'zaro uyg'unligi va rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat darajalariga ko'tarish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tariladi.

Ma'lumki, yurtimizda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Barcha jabhalarda xorijiy tillarni o'qitishni davlat siyosati darajasiga ko'tarish jamiyatning yanada demokratiyalashuviga, fan va ta'limning rivojlanishiga olib keladigan muhim omillardan biri desak, mulohaza bo'lmaydi. Ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar so'zi bilan aytganda til inson va olamni bog'lab turuvchi vosita, ko'prikdir:

- Xorijiy til o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari hamda xorijiy tillarni o'qitishda baholash;
- Xorijiy tillarni o'qitishda IT texnologiyalar, masofaviy ta'lim, elektron raqamli ta'lim;
- Chet tillarni o'qitishda zamonaviy lingvistik yo'nalishlari, lingvistik tamoyillardan foydalanish;
- Badiiy matnning statistik tahlili, yechim va muammolar.

Ingliz tili-II fakultetining "Ingliz tili nazariyasi va adabiyoti" kafedrasidan o'qituvchi anjumani xorijiy til ta'limi, xorijiy tillarni o'qitish usullari va ta'lim-tarbiya nazariyasi, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq dolzarb muammolar, ularning yechimlarini topish hamda bu borada erishilgan yutuqlar doirasida mutaxassislarimizning tajriba va fikr almashuvini ta'minlash, masofaviy ta'lim usullarini takomillashtirish, til o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish va o'qitish sifatini yaxshilashga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Anjumanda Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi vazirliklari tizimidagi muassasalarning yuzdan ziyod malakali chet tili fani o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar vakillari ishtirok etishi kutilmoqda. Umumiy yalpi yig'ilish, sho'balar yig'ilishi va kichik guruhlarda bo'lib o'tadigan respublika konferensiyasi ishtirokchilariga sertifikatlar taqdim etiladi.

Nilufar Sulaymonova,
Samarqand davlat chet tillar instituti "Ingliz tili nazariyasi va adabiyoti" kafedrasini mudiri, dotsent.

RUS TILINING CHET TILI SIFATIDA RIVOJLANISHI



miqdorida moliyaviy yordam qildi. Jamg'arma rahbari Toshkentda memorandumni imzolash marosimi ishtirokchilariga murojaat qilar ekan, Rossiya va O'zbekiston bir-birini mushtarak tarix va madaniy meros bilan uzviy bog'lab turishini ta'kidladi.

Memorandum imzolanganidan so'ng Gertsen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetidan rus tilini alohida fan sifatida o'qitish, shuningdek, rus tilidagi o'quv fanlari ko'lamini kengaytirish maqsadida 32 nafar mutaxassis respublikamizga taklif etildi.

Abdulla Avloniy nomidagi Toshkent xalq ta'limi tizimi rahbari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti hamda viloyatlardagi qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'limlari negizida rossiyalik mutaxassislar tomonidan xalq ta'limi, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalari pedagog va metodistlarining malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi.

Pedagog va metodistlarni qayta tayyorlash tugallanganidan so'ng rus tilini bilish bo'yicha test sinovlari o'tkaziladi va C1 darajasida xalqaro sertifikatlar beriladi.

Ma'lum bo'lishicha, dastur xalq ta'limi, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarining 30 mingga yaqin pedagoglarini qamrab oladi. Natijada rus tili va rus tilidagi fanlarni o'qitishni yangi sifat bosqichiga olib chiqadi.

Abdurahim Boymahmadov,
SamDCHTI Payariq Xorijiy tillar
fakulteti "Umumiy fanlar"
kafedrasini mudiri.

Davlatimiz rahbarining oqilona siyosati va tashabbusi bilan O'zbekistonda xorijiy tillarni rivojlantirish borasida ulkan, samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish, faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5117-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorning maqsadi – ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida chet tillarni o'qitishni rivojlantirish, bu yo'nalishda ta'lim sifati tubdan oshirish, sohaga malakali o'qituvchilarni jalb etish va aholining chet tillarni o'rganishga qiziqishini oshirishdan iborat bo'ldi.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda

aholining aksariyat qismi rus tilida so'zlashadi, kollej va litseylarda rus guruhlari soni mos ravishda 40-50 foizni tashkil qiladi. Rus tili mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlarida o'qitilib, respublikaning yirik shaharlarida ham ish yuritishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'kidlash joiz, poytaxtimiz Toshkentda Xalq ta'limi vazirligi va Rossiya Federatsiyasi Ta'lim vazirligi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolab, uning doirasida "Knacc" deb nomlangan qo'shma ta'lim loyihasi boshlandi. Loyiha o'z-o'zidan tug'ilgan yo'q, uni axborot va moliyaviy jihatdan "San'at, fan va sport" xayriya jamg'armasi qo'llab-quvvatladi.

Ushbu jamg'arma birinchi bosqichni amalga oshirish uchun besh million dollar

o'qituvchining o'zidir. Ustozning butun iftixori shogirdlarida, u ekan urug'larning o'sib chiqishida. Agar o'qituvchida faqat ishga muhabbat bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. O'quvchilarda mavjud qobiliyatni rivojlantirish uchun maktabimizda besh muhim tashabbus doirasida turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

O'quvchilarni fikrlashga undovchi savollari asosida har oyda bir marta bilimdon, zukko o'quvchilar o'rtasida "Zakovat" o'yinlari tashkil etilib

O'QITUVCHILIK – MAS'ULIYATLI KASB

Muallimlik – asrlar silsilasidan o'tib borayotgan ushbu kasbning sharafi qanchalik ulug' bo'lsa, mashaqqati-yu zalvorli undan ham ko'p bo'lsa ko'pk, aslo kam emas. Yosh avlodning bilimli, salohiyatli bo'lib yetishishlari yo'lida mehnat qilish barobarida, ustoz-murabbiylarimiz ularda chin insoniy fazilatlarni ham kamol toptirish uchun o'z vaqt va tajribalarni ayamaydilar.

Oila farzand tarbiya oladigan asosiy maskan

bo'lishiga qaramay, u ta'lim oladigan dargohdagi muhit, uning ilm beradigan insonning ta'siri ham o'ta yuqoridir.

Kelajak avlodning qanday shaxs bo'lib yetishishi uning qanday insonlardan ta'lim-tarbiya olishi bilan chambarchas bog'liq.

Butun bir millatning ertasi egalarni kamol toptirishdek mushkul vazifa, aynan, o'qituvchi va murabbiylarning zimmasiga yuklangan. Muallimlik kasbini zalvorli deya

ta'riflashimizning sababi ham shundandir. Ayni paytda, bu eng qiyin kasblardan biri, chunki u sabr-toqatni talab qiladi. "Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qila olmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylinishi kerak", degan edi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Maktabdagi eng muhim hodisa, eng jonli ibrat – bu

Gulchehra Qo'nisheva,
Jizzax viloyat Baxmal tumani 66-maktab o'qituvchisi.

NAVOIY (NOVEL)

ILK BOR O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA

ILHOMJON TO‘XTASINOV, SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI REKTORI, PROFESSOR

(Davomi. Boshlanishi oldingi sonlarda)

Husayn Boyqaro, accompanied by mounted warriors, chariots with military equipment and captains, clearing the way, with the usual solemnity made his way from the capital. The Sultan with his large retinue moved slowly. He was not so much resting on the way and even amused himself by hunting. When he reached the Murghab River, Giyosiddin Dehdor suddenly appeared in his camp. Jumping off his horse, he bowed and approached to Husayn Boyqaro and by the custom he kissed the flooring of his dress. Then he took a few steps with a sense of a prayer for sultan. Strong in many sciences and knowing a variety of crafts, fine Dehdor also learned the rules of etiquette

– Well what about your promise that you gave with all the people? We have not yet seen the fruits of your courage - ironically said Sultan.

– Oh, the Sultan of universe! - Dehdor said, putting his hands to his chest.

– Honestly, this poor man fulfilled his difficult task. Your rebellious slave is in my hands. I could not bring him to you chained because in this steppe there was no chain. If the Hakan allows, I'll run a train, take a blacksmith and bring to you a prisoner in chains.

The Sultan, apparently, was very happy. He asked where was the Darveshali. Dehdor said he left his three farsakhs from rates that Darveshali flooring remorse and wants to contemplate his sovereign. The Sultan Husayn Boyqaro frowned and pondered. After a brief reflection, he said:

– Let him come! I forgave him. All cheered the Sovereign's grace, except supporters of Majiddiddin.

Darveshali was adopted by the sovereign on the banks of the Murghab. It turned out that after the resignation of Majiddiddin between them there was no disagreement. Husayn Boyqaro confirmed his royal favor, appearing on the big feast

arranged in the camp of Darveshali. It was decided to head to Balkh and at the onset of spring send the troops against Sultan Mahmud.

Arriving in Balkh, Husayn Boyqaro stopped at Chahorbog, the palace of the Emir of Argun. Here, as well as in Herat, the cold winter days were busy with amusements. Feasts and a variety of fun continuously replaced each other, sometimes giving an official huntings with shooters, which lasted for weeks. Noise and screams filled the snowy steppe. Hunters returned with big booty.

Navoiy held a modest house in Balkh. Away from the surrounding king commanders and senior official's nobles who were engaged in gossip, betrayal and debauchery, alien to lavish celebrations and daily entertainment, the poet spent his days at work and thinking. He considered his participation in this campaign pointless and felt deprived of his liberty. He visited Balkh's scholars and poets. Navoiy led friendly conversations with them, read their writings, assisted them, monetarily and morally... For hours Navoiy

wandered through Balkh, inspecting walls, collecting information about the city's past.

Surrounded by mighty walls, Balkh was once a large flourishing city, famous for its art, trade and artisans. Chingiz's terrible troops besieged the city who bravely defended their freedom destroying opposing Mongolian hurricane. Eventually he succumbed in the unequal struggle and surrendered.

A wave of disaster filled brave city. Tens of thousands humbly people bowed their heads knocked down by an enemy sword. After this terrible blow, Balkh could not recover. Centuries passed, but life in the city barely smoldered. Terrible traces of the Mongols, like a scar from severe wounds, were still visible on the body of the city.

Seeing the terrible consequences of the invasion, the poet sadly frowned. His

thoughts were being carried out in the limitless expanse of history gradually revealed in his mind. Over the seas of blood, towers of skulls on fire storm swept across the sky. Navoiy disguisedly had seen the terrible shape of the brutal conqueror. He sought in the history of heroes who resisted the conquerors, bringing life to the world, embodying the noble creative powers of the human spirit with the lamp illuminating the way of life of the mind.

The breath of winter started to soften. Yellow icicles hanging a few days on the ledges and roofs of drainpipes melted. The spring breeze fluttered, every day was getting warmer and warmer. Young branches of trees dressed in greens.

Husayn Boyqaro ordered to prepare to march. The nukers engaged in hunting in the vicinity of Balkh, were returning to the city. Artisans produced diligently missing weapons and equipment. One fine spring day Husayn Boyqaro announced a campaign against Sultan Mahmud. The warriors were ready to go. Husayn Boyqaro's bodyguards and his close men left the Chahorbog. The sounds of drums and karnays filled the air. Horses, pulling themselves into the steppe, shimmering in the distance, like the blue sea, eagerly bellowed. The meek pacer of Navoiy also biting at the bit and pricked ears, hooves hit the ground. Separate groups of soldiers marched under the command of beks reared by beautiful horses, harnesses which were made by the best saddlers, glistening silver and azure.

Husayn Boyqaro's servant beckoned to Navoiy and said: - You will be in Balkh until our return and take control of the region in your hands.

Navoiy was surprised by the unexpected commandment. Until now, it was not even any hint. Refusing the offer, a sign of confidence in Navoiy had no reason to.

- I accept this appointment, though it is not easier than the arduous of military

campaign - the poet said respectfully. Husayn Boyqaro seemed happy and cheerful. He gave orders, peppering his speech with jokes, laughed and chatted animatedly with Darveshali who sat silently on his horse; he asked Islim Barlos what he thinks about the future battles. When all the preparations were complete, the Sultan Husayn with the usual solemnity set out.

Appearing in Balkh Ministry, Navoiy talked with young employees and seasoned officials familiar with the situation in the area. He spent the night at the Ministry reading books.

The next day, in the afternoon, the poet gathered several employees who seemed to him the most conscientious. When he talked with them on some of the officials, known for their brutality and bribery, a nuker ran into the room.

– Mr. Amir, Mr. Darveshali is brought! - chokingly he shouted. Overcoming anxiety, Navoiy rapidly ran out into the yard. He met by taking great strides and heading to familiar captain. Approaching to Navoiy the captain stopped and with a respectful bow quietly said, without being able to hide his confusion: - By the command of His Majesty's Hakan, we brought Darveshali Bek. They say you have to imprison him.

Navoiy got pale and frowned. Looking at the riders at the gate, he saw between four armed Nukers, Darveshali with his hands tied, putting his hands to his chest, Navoiy welcomed and immediately looked away, embarrassed. Darveshali's face was sorrowful. Sadly, shaking his head, he shook hands with his brother.

– What do I see? The mind refuses to believe it! - the poet said, choking with grief and excitement.

– Did something unforeseen happen?

– During this time, nothing new had happened. Our enemies want to revenge on us, said sadly Darveshali. - Do not doubt I'll go to the abode of darkness.

– What do you require of me? - looked

Yasavul at Navoiy.

- Write order to the chief of fortress.

- As governor of Balkh you should imprison me, - sadly smiling, said Darveshali.

Navoiy, without answering, went into the house. Entering the room, he took Kalam and paper and began to write the order automatically. His heart ached with pain and his eyes darkened. Suddenly he put down Kalam. «What an insult! Their hands to arrest his brother! For what offense? For the fact that he is an enemy -Majiddiddin in traitors like him!»

Navoiy's heart was bleeding, but he still had to give the order. If Husayn Boyqaro got angry at him or Darveshali, this would entail even worse consequences. Taking again the Kalam Navoiy finished the last line of the order and signed it. He ordered to door keeper to convey orders to the Nuker Cossack captain. With head bowed and hands clasped the poet had a blazing wide forehead.

"Drag us to get back to us for truthful word! - he thought, shaking with anger.

– Yes, as insidious as it's hypocritical! Truly said our grandfathers: Who brought water abased, who broke the pitcher -exalted. Well!. You can bring down upon my head the whole mountain of torture and suffering, but do not force me to join the ranks of your executioners, burglars and drunken people! I agree to give up his life, to leave this homeland, which is dearer to me than life and by a mile, but I will not hide the word of truth! "

XXX

Togonbek did not participate in the campaign, he was in Herat with Prince Muzaffar Mirza. Feasts, hunting, receptions and games, tuning in for the entertainment of the prince, Togonbek was always beside Muzaffar. On the boards, the prince listened with great attention to Togonbek more than other beks. After the fall of Majiddiddin Togonbek got more tightly

attached to the Prince, showing him a dog's devotion, but he did not forget his old friend and benefactor too.

In his free time of hunting and drinking bouts Togonbek taught the art of war to the jigits of Muzaffar Mirza, among whom were noble youths...

On the broad flat areas of the town they learned archery, chopping swords, rushing on horseback and beating with spears. During the exercise of Togonbek the jigits sometimes got amazed at his agility and knowledge of military affairs. Showing them some special reception, he went down on his haunches and drawing the bow end of the earth, told jigits to surround him, where and from whom he learned this technique, what were the fighting qualities of his opponent. He spoke slowly, with pauses counting words, just a drop of medication. Then slowly rose, rolled up sleeves and his wide robe, proudly looking at, his story for enthusiastic listeners ended:

– Once in Samarkand we were heroes. Tomorrow we will show you one of the amazing tricks. Once, when I fought with one swordsman, semimongol, semikipchak, he used an amazing welcome. I was barely saved by his head. Now this technique came to my mind, it's harmless to show it.

One day, returning from a hunting trip, Togonbek went to the garden of Majiddiddin. It was the end of summer. The trees were so full of many fruits that branches bent almost to the ground. He could not tear his eyes away from flower beds. But the palaces, each of which was a mira.

Going to the door of a large palace, Togonbek met a beautiful slave girl of eighteen, who was carrying water in a copper jug. Togonbek winked at the girl and told her to call the owner.

Majiddiddin's lightweight white coat came out to greet the guest and invited him to enter. cle of art, were empty.

(Davomi keyingi sonda)

TAQDIR

(HIKOYA)

Bugun yoshlikda birga o'sib katta bo'lgan yaqin dugonam chet eldan kelyapti. U maktabni bitirishimiz bilanoq, oilasi bilan chet elga ko'chib ketgan edi. Kafeda kutib o'tirar ekanman, u bilan bo'lgan voqealar ko'z oldimda gavdalanib o'tar edi. Ancha o'zgarib ketgandir-a deb o'yladim. U keldi. Haqiqatan ham, tanib bo'lmas darajada o'zgaribdi. Qadrdon o'rtoqlar uzoq yillardan keyin ko'rishganda qanday bo'lsa, biz ham shunday ko'rishdik.

– O'rtoq ancha o'zgaribsan, nima yangiliklar bo'ldi? Alisher akang yaxshimi? To'ylaring bo'ldimi?

– Dugonajon, seni hech nimadan xabaring yo'q. Hozir hammasini aytib beraman, eshitgin.

...Xullas, kollejni endi tamomlagan paytim, o'n to'qqiz yoshlar atrofida edim. Institutga kirish niyatim bor edi. Uyimizga sovcilar kela boshladi. Ammo men hali turmushga chiqmoqchi emasdim. Bir tomondan hali yoshman, o'qish maqsadim bor. Ikkinchi tomondan esa yuragimda Alisher akam bor edi. Taniansanda ku, bir ko'chada ta turamiz. Toshkentga o'qishga kirgach shu yoqda ishlashni boshlagan edi. U o'qishini tamomlab, o'zini tiklab olgach uyimizga sovg'ini qo'ymoqchi edi. Shunday qilib kelajagimiz bog'lanishiga qattiq ishonandik, shuning uchun xayolimizda chek-cheragisiz orzularidan koshona qurib unda baxtli yashardik. Onamga u haqida aytganimda: "Yigit yaxshi bo'lsa, ko'ngil qo'ygandir, qarshiligini yo'q. Lekin dadangchi? Dadang nima deydi?" Men: "Amallab ko'ndirarmiz" deb qo'ygandim.

Biroq chuchvarani xom sanagan ekanman. Aytganimdek, uyimizdan sovcilarning keti uzilmay qoldi. Bir kun dadamning o'rtog'ining o'g'ildan sovg'ini keldi. Yigitni rosa maqtashdi, topamon-tutarman deyishdi. Qolaversa, oilaviy munosabatlarimiz yaxshi. Men bo'lsa yig'ladim, siqtadim, Alisher akam haqida aytдим, ammo meni tushunishmadi. Xullas, rozilik berib yuborishdi. Uyimizda faqat onamning mening ahvolimni tushunar edi. Nachora taqdirga tan berdim.

Shu o'y-xayollar qiyonig'ida Alisher akamga qanday aytdim men tashvishdan solar edi. Aytmasimdan aydin mahalladoshlaridan xabarni eshitgan ekan. Telefon qilishim bilan bo'lgan gap so'zlarni hammasini aytib berdim. U ham tushundi. Nima qilsin, majbur-da. Keyin bir-birimizga baxt tilab, xayrlashdik.

Kun o'tgan sari to'y tashvishlari bilan bo'lib sal chalg'ig'anday bo'ldim. Keyin esa hatto imtihon vaqtiga ham bormasdan to'yim bo'ldi. Alisher akamdan ayrilgach hech qachon baxtli bo'la olmayman, hech kim menga u bergan baxtni bera olmaydi deb o'ylardim. Aytganimdek, xuddi shunday bo'ldi. To'ydan keyin yangi oilamda tushunmovchilik bo'la boshladi. Qaynonamning tabi injiq edi. O'tirsang

o'poq, tursang so'poq, deb rosa kamsitar edi. Qilgan har bir ishmdan kamchilik topib, tirnoq orasidan kir qidirar edi. Shunday paytlarda juda siqilib, hayotdan to'yib ketar edim. Ammo bir xursand bo'ladigan joyi bor ediki, turmush o'rtog'im har gal onasi bilan tortishib qolsam, men tomon bo'lar edi. "O'yi, qo'ying, kelingingiz hali yosh-ku, o'rganadi", deb tinchlantirar edi qaynonamni.

Kun ortidan kun, oy ortidan oy shamol tezligida o'tib borar edi. Bir kun qaynonamning yaqinda to'yi bo'lgan qarindoshlari keldi. Mehmonxonaga choy berish uchun kirdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, Alisher akam yangi kekin oldida ko'hlikkina, savlat ko'kib o'tirar edi. Yuragim hapqirib ketdi. O'zimni zo'rg'a tutib turdim. Chunki to'ydan keyin oilaviy muammolar bilan bo'lib, u haqida umuman o'ylamagan ekan-



man. Kutimaganam sodir bo'lgan bu voqeadan esankirab qoldim. Stolga choyni ko'z ko'z qilib so'rashgandek bo'ldim-u, Alisher akam xuddi "Mahliyo, bu senmi? Shu yerga kelin bo'ldingmi?" deb so'rab qoladigandek xonadan darrov yugurib chiqdim. Keyin yana bir-ikki marta kirdim. Ko'zlar ko'zlariga tushganda biroq payqab qolmasin deb tezda ko'zini boshqa joyga olgandek tuyular edi menga. Biroq ko'zlaridan baxtior ekanligi ko'rinib turgandi. Men juda xursand bo'ldim.

Bu voqeaga ham bir necha yillar bo'ldi. Hayot mashaqqatlarini yengib o'tib, endi baxtli onlarni his qilayotgandekman go'yo. Xudoga ming shukurlar bo'lsinki, farzandim bor, o'qishga kirdim, o'qityapti. Turmush o'rtog'im o'qimishli, madaniyatli, meni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Shuni anglab yetdimki, ota-ona hech qachon noto'g'ri yo'lga boshlamas ekan, boshida ota-onamdan juda xafa bo'lgandim-da. Har qanday ota-ona farzandini baxtli, kelajagi porloq bo'lishni xohlar ekan. Men adashgan ekanman Alisher akamdek hech kim baxtli qila olmaydi deb. U paytlar shunchaki havas bo'lgan ekan, yoshlikdagi muhabbat o'tkinchi, deganlari rost ekan. Xullas, endi baxtimni topdim. Ota-onamdan meni shunday baxtga munosib ko'rishgani uchun ming bor roziman.

Ikki dugona shunday suhbat qurib, dardlashib o'tirar ekanmiz, ofitisan keldi. Kafening ko'chaga qaragan derazasidan esa bir hayot qozonida qaynayotgan turli taqdir egalari ko'rinib turardi...

Diinoza Ochilidiyeva,
Samarqand davlat chet tillar
instituti talabasi.

MILLIYLIKDAN QOCHISH URFGA AYLANDIMI?

Talaba qizlarni milliy tarbiyalashda milliy kiyinish ko'nikma, odatlarini tarkib toptirish o'ta dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ba'zi qizlarning kiyinish borasida ovro'pacha kiyinishga taqdidining ommaviylashib borishi bag'oyat achinarlidir. Buning oqibatida hozirda ba'zi talaba qizlarda oynayi jahon ko'rsatuvlarida ko'rayotgan materiallar, ba'zi katta opalarining «namunasi», kiyinish sohasidagi «moda»larga taqdid bu haqda ular oningning noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Misol uchun ba'zi o'zbek qizlarning tanasiga yopishgan tor shim, tanasini ko'z-ko'z qilib behayolarcha ko'rsatadigan yupqa shifon matolardan tor tikilgan kalta ko'yak, yubka, kofta, palto kabi ovro'pacha kiyinadiganlar soni yirik shahar muhitida kun sayin ortib borishi milliy madaniyatning, ma'naviyatning, qolaversa, millat tarbiyasining pasayishiga, obro'sizlanishiga, qadrsizlanishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, talaba qizlarning milliy kiyinishi O'zbekiston xalqining tarixiy-madaniy, ma'naviy merosining ajralmas tarkibini tashkil etadi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 49-moddasida «Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini asrashga majburdir» - deya, huquqiy asoslab berilgan. Shunday ekan, har birimiz, ayniqsa, qizlar qomusimizda belgilab berilgan o'z fuqarolik ijtimoiy burchlarini ado etishga mas'uldirlar.

Mazkur dolzarb ijtimoiy pedagogik vazifani amaliy hal qilishda birinchi galda ota-onalar, professor-o'qituvchilar, guruh murabbiylari va keng jamoatchilikning ko'nikayotganligi, bafarqligi, ijtimoiy mas'uliyatsizligi talaba qizlarning milliy ruhda tarbiyalanishiga yomon ta'sir ko'rsatmoqda. Buning asosiy sababi ba'zi ota-onalarning talaba qizlar milliy kiyinish bo'yicha pedagogik ma'lumotlari, tajribalari hozirgi hayot talablari darajasida emasligini ko'rsatadi.

Milliy kiyinish bo'yicha talaba qizlarga moddiy-ma'naviy jihatdan kuchli ta'sir ko'rsatadigan ota-onalarni shu sohaga ilmiy, amaliy tayyorlash talab etilmoqda. O'zbekiston respublikasi Oila kodeksi 73-moddasida «Ota - onalar o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardirlar. Ular o'z bolalarining sog'ligi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart» deb belgilangan talabi o'rindir. Shuningdek, mashhur rus pedagogi Konstantin Ushinskiy «Ota-onalar uchun pedagogik bilim xalq ruhi bilan sug'orilgan, xalqchilik g'oyasiga asoslangandagina ota-ona bilimdon tarbiyachilik san'atiga ega bo'la oladilar», deb ta'kidlagan fikri nihoyatda hayotiydir.

Shuningdek, ota-onalarni qizlarini milliy kiyintirishga amaliy tayyorlashda milliy istiqloq g'oyasi, milliy ong, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va millatdan faxrlanish kabi milliy tuyg'ularni singdirishga alohida e'tiborni qaratish zarur. Chunki ota-onalarning o'zlarida milliy g'oya, milliy ong shakllanmasa, talaba qizlarning ovro'pacha kiyinishiga qiziqishi ortib boraveradi.

Ovro'pacha kiyinishga chek qo'yish uchun,



avvalo, ota-onalarning o'zlariga ovro'pacha kiyinishning moddiy va ma'naviy zararini tushuntirish, anglatish zarur. Avvalo, ota-onalar milliy kiyinmaslik o'z millatining shu sohada tashqi qiyofasini tanazzulga olib kelishini anglashi darkor. Ana shu haqiqatni bilish ota-onalar uchun juda muhim. Ota-onalarni talaba qizlarni milliy kiyintirishga amaliy tayyorlash quyidagicha ijtimoiy muammolarni hal qilishga olib kelishi mumkin. Ular: mamlakat mavqei mustahkamlanishiga, dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini egallashga, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ishlab chiqarishda qatnashadiganlarni ish bilan ta'minlashga, talaba qizlarning ovro'pacha kiyinishiga chek qo'yishiga; ularda milliy ong, milliy g'urur, milliy o'zlikni anglashni tarkib toptirishga hamda o'z millatiga xos sharm-u hayo, ibo-iffat, or-nomus kabi milliy qadriyatlar shakllanadi.

Har bir millatning o'ziga xos va mos kiyinish tajribasi bor. Ana shu kiyimlar insonlarni qaysi millatga mansubligini ifodalagan, ko'rsatgan. Shuning uchun ham bizning kiyimlarimiz o'zbekligimizni ifodalashi va ko'rsatishi lozim. Shunday ekan, talaba qizlarning kiyinishini ham millat, davlat manfaatidan kelib chiqib tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Kiyinishda zamonaviylikni hisobga olish kerak, ammo millat manfaatiga mos va unga uyg'un bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Talaba qizlarni milliy kiyintirishga ota-onalarni pedagogik tayyorlashda quyidagi yo'nalishdagi bilimlarni qo'llash uning samaradorligini ta'minlaydi. Bular:

– Boshqa millatlar kiyinish tajribasini ko'ro'rona anglamasdan, taqdid qilib o'zlashtirish millat obro'sini, qadriini pasayishga olib kelishiga ishonmog'i va talaba qizlarni ishonitirmog'i;

– Milliy kiyinish talaba qizning ijtimoiy hayotda jamoat orasida hurmatli, e'tiborli, izzatli va qadri bo'lishiga asos, poydevor yaratadigan vositaligini

anglamog'i;

– Milliy kiyinish talaba qizning millatiga sadoqatini, mansubligini va munosibligini ko'rsatuvchi belgi, tarbiya vositasigiga talaba qizlarni ishonitirmog'i va uni hayotda qo'llashga o'rtog'mog'i; milliy kiyinish insonning o'ta onlligini, farosatligini, madaniyati va ma'naviy kamolot darajasini ko'rsatuvchi mezonligini tushunmog'i;

– Kiyinish har kimning o'z xohishini ifodalab qolmay, balki millat, xalq, davlat manfaatini amalga oshiruvchi ijtimoiy ahmiyatga molik bo'lgan tarbiyaviy vosita bo'lmog'iga talaba qizlarni ishonitirmog'i;

– Milliy kiyinish millatning ko'rki, ko'zguisi, g'ururi, iftixori va or-nomusini ifodalovchi, ko'rsatuvchi tarbiya vositaligiga ishonmog'i va boshqalarni shunga ishonitirma mog'i va hokazo.

Ota-onalarning yuqoridagi ta'kidlangan bilimlari talaba qizlarni milliy kiyintirishdagi pedagogik ma'lumotlarini takomillashtirib, ularni pedagogik tayyorlashga amaliy yordam beradi, degan fikrdamiz. Shunday qilib, talaba qizlarni milliy kiyintirishga ota-onalarni pedagogik tayyorlash malakali yetuk mutaxassislar tayyorlashning tarkibiy qismini tashkil etmog'i zarur.

Mavzuning dolzarbligini hisobga olib, o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari, oliyoghlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tarbiyaviy vositalarda mazkur mavzuni muhokama qilib, hayotda joriy etilsa, talaba qizlarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi yanada yaxshilanishiga aminmiz.

Jamoliddin Saydullayev,
Samarqand davlat chet tillar
instituti psixologi.

SAMARQANDDA NEYROXIRURGLARNING III ANJUMANI BO'LIB O'TMOQDA



Joriy yilning 27-may kuni Samarqand davlat tibbiyot universitetida Osiyo neyroxirurgi kongressi tashabbusi bilan O'zbekiston neyroxirurglarining III anjumani o'z ishini boshladi. Anjumanda 15 dan ortiq davlatlar, shu

jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ukraina, Yaponiya, Turkiya, Koreya, Italiya, Fransiya, Germaniya, Turkmaniston, Malayziya kabi davlatlarning tibbiyot oliy o'quv yurtlari hamda

yetakchi ilmiy-tibbiyot markazlarining neyroxirurgiya sohasidagi olim va mutaxassislari ishtirok etmoqda.

Mazkur anjumanning aynan Samarqandda o'tkazilishiga Samarqand davlat tibbiyot universitetining neyroxirurgiya sohasida o'rtirilgan boy tajribasi hamda taniqli olim, universitet huzuridagi neyroxirurgiya va neyroeabilitatsiya markazi direktori, professor Abdurahmon Mamadaliyevning tabarruk 80 yoshlik yubileyi nishonlanishi sabab bo'ldi.

Anjumanning tantanali ochilish qismida Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori, professor Jasur Rizayev hamda O'zbekiston neyroxirurgiya ilmiy-texshirish instituti direktori G'ayrat Kariyevlar barcha ishtirokchilarni qutlab, universitet professori Abdurahmon Mamadaliyevni ilmiy fanga qo'shgan hissasi, neyroxirurgiya sohasida Samarqandda yaratilgan ilmiy-amaliy maktab faoliyati, sohaning zamonaviy yutuqlari va rivojlanish istiqbollari haqida gapirib

o'tdi.

Yalpi majlisdan so'ng anjumanning asosiy ishi shobalarda davom etdi. Ularda spinal neyroxirurgiya, bolalar neyroxirurgiyasi, qon-tomir, periferik asab tizimi neyroxirurgiyasi, neyrokologiya, funksional neyroxirurgiyaga oid dolzarb mavzularda ma'ruzalar tinglanib, munozaralar o'tkazildi.

Anjuman doirasida yosh olimlar musobaqasi ham bo'lib o'tdi, yosh iste'dodli tadqiqotchilar aniqlanib, tegishli sertifikatlar va diplomlar bilan taqdirlanishdi.

Samarqand davlat tibbiyot universitetida o'tkazilgan mazkur xalqaro anjuman respublika va mintaqamizda neyroxirurgiya va neyroeabilitatsiya sohasini rivojlantirish, fundamental va klinik fanlarni o'qitish sifatini yanada oshirish, malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash hamda respublikamiz tibbiyot oliygohlari va ilmiy tekshirish markazlari xalqaro aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

SamDTU matbuot xizmati

XORIY XABARLARI

BOEING O'ZINING YANGI KAPSULASINI MUVAFFAQIYATLI SINOVDAN O'TKAZDI

Boeing o'zining yangi Starliner kapsulasini Xalqaro Kosmik Stansiyaga muvaffaqiyatli olib chiqdi, u odamni orbitaga olib chiqish uchun mo'ljallangan.

NASA bu qurilma SpaceXning "Dragon"i bilan birgalikda AQShga o'zining kosmik parvozlar dasturini amalga oshirishda yordam beradi va XKSGa yuk va odamlarni yetkazib berishda Rossiyaga qaramlikdan xalos qilishiga umid qilmoqda.



BELGIYA DUNYODA BIRINCHI BO'LIB "MAYMUNCHECHAK" BILAN KASALLANGANLAR UCHUN 21 KUNLIK KARANTIN JORIY QILDI



Belgiyada 20-may kuni "maymunchechak" bilan kasallanganlar uchun majburiy 21 kunlik karantin joriy qilindi. Bu haqda mamlakat Sog'liqni saqlash vaziri Frank Vandenbrouck ma'lum qildi. Uning so'zlariga ko'ra, maymun-

chechak virusiga chalinganlar "pustulalar (ichiga yiring to'plangan pufakchalar) bitib ketgunicha" izolyatsiyada bo'lishi kerak.

Kasallanish holatlari 12 ta mamlakatda qayd etilgan. Top uchta Portugaliya, Ispaniya va Buyuk Britaniya kirdi. Shuningdek, virusni yuqtirganlar Avstraliya, Belgiya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya, Shvetsiya va AQSHda ham aniqlangan.

Maymunchechak — kamyob yuqumli kasallik bo'lib, asosan Markaziy va G'arbiy Afrikaning o'lis tumanlarida eng ko'p tarqalgan. Uning belgilari — ko'ngil aynishi, isitma, toshma, qichishish, shuningdek, mushaklardagi og'riq. Virus kontakt orqali yuqadi, ammo uning tarqalish darajasi yuqori emas.

THE SEMANTIC DEVELOPMENT OF THE VERBS "FEORIAN, FYRSIAN, FEORSIAN" IN OLD ENGLISH

When we compare state and neutral action verbs, directional action verbs are lacking. Therefore, there are no limits to the semantic development of directional verbs. In Old English, directional verbs have a coded meaning, and their initial form of meaning is rare. For example, the ancient verb "scipian" meaning "to take a ship" is based on the verb "to move inwards" or "to move inwards". In Old English, verbs that mean directional movement had many additional meanings, and these verbs were not used as purely directional movements. We will try to prove the above points with the examples given in the main part of the article.

In Old English, the verb "feorian" is used to mean "to go far". The verb, of course, has an additional meaning, "far away". Translated from the ancient Latin, "longe fugiunt" means "to go far and run away." Thus, the verb has the same meaning as "far away". For example:

1 example:
a) gif hi hwylicne man on ðam landum ongiat oððe him hwylic folligende bið, þonne feoriað hi & fleoð.
b) If they notice or see someone in this land of giants or feel that someone is watching them, then they go away and run away.

According to L. Kornexl, the above examples have been used for morphological analysis and to convey the meaning of each syllable (Kornexl, 2001; 195-216). The ancient verb "lætān" from Latin is often used to mean, "to leave". The verbs "fæder and modor, þæt child, hine" are used not only to mean leaving places but also means leaving people (Example 2 a-b).

2 example:
a) for ðan forlæt se man fæder & modor, & geðeot hine to his wife.
a) Boys leave their parents and live separately with their families.
b) ca cyrdon heo ham mid þam & þæt child forlætan æt temple mid þam oðre femnen.
b) The rest of the women left and left their children with other women in the castle.

Among the meanings of the verb "Forlætān" in relation to an object or person are used "to leave behind", "to leave soon, to neglect", "to abandon, to abandon altogether, to disconnect" given in the sense of purpose or wall and city (3 examples a, b).

3 example:
a) hig þa forlætān wallone wall & heora burh, & flugan onwæg.
a) Then they left their walls and cities and fled.
b) ðes ilces geares com se abbot Heanri of Angeli æfter Æsterne to Burch & seide þæt he hæfde forlætan þone minstre mid ealle.
b) In the same year, after Easter, Abbot Henry Angel came to Peterboro and said that he had left the monastery.

4 example:
a) wicon weallfæsten, wægas burston, multon meretoras.
a) the forts were emptied, the waters cracked, the

high walls of the sea melted.

b) þæt sio ecg gewac brun on bane, batn uswior þonne his ðiodcynig þearfe hæfde

b) Biowulf struck the beast with the edge of his sword, a blow that weakened him and burned him to the bone, which was stronger than he described the dragon master.

c) ne gemealt him se modsefa, ne his <mægēs> laf gewac æt wige.

c) his [i.e. Neither Wiglaf's] courage nor his cousin's legacy [that is, his sword] did not fail in battle.

The prefixed form of this verb means, "to allow, to fail." This verb occurs twice in Beowulf's work (examples 4 b and c) in the dragon fight episode. In the example above (Example 6 b), for the first time, Biowulf's sword was used to describe his weakening by defeating him. In the next example (Example 6 c) Wowlaf, Beowulf's bodyguard, comes to the rescue and Beowulf's sword does not fail. Here the verb is interpreted as describing an event of action. The verb "wican" has always been a purely verb.

Old English verb "(ge) witan".

In the Old English dictionary, this verb means "to go, depart, go out", "to go out." In some sources, this verb is used to "turn one's eyes in any direction with the intention of taking that direction, to set out towards means "turn in any direction". According to some scholars, the verb means "to set out" (Ogura, 2000; 72-85). And in Weman's words, it meant "moving away from somewhere". This shows that the verb "(ge) witan" describes not only the directional action but also the action verb in general.

5 example:

a) and se engel him gewat fram.
a) The angel left them.

b) op þæt þæt scamlease wif geswanced aweg gewat fram þam eþþyrle his cytan.

b) The shameless woman started angrily out the window of her summer house until she left.

In Example 5 b suffixes differ from prepositions. The verb "onweggawitenness" used in Old English means "to depart away" in later examples. Later, the verb with the prefix "forogewitan" was used, and the meaning of "awaydeparture" was "to leave". In addition, the modern preterite form of the verb "gewitan" used in Old English is "gewät" without the use of prefixes or prepositions to express a specific verb. The infrequent use of the verb "gewät" meant "to die" (see Example 6 a). The above examples have played an important role in making a number of changes to the dictionary. Lexicographers have created a modern English ephemeral from the word "depart" in the dictionary. The verb "gewät" is used in the sense of directional action to express a specific action (see Example 6 c).

6 example:

a) ac traianus gewat on þæm ilcan geare.
a) but Trajan died that year.

b) Wa was æfter noht monegum gearum æfter his onweggawitenesse of Breotone, þætte Wine wæs

adrifen from þæm ilcan <cyninge> of his biscopseðle.

Ga gewat he to Wulfhere Mercna cyninge; ond mid feo gebohte æt him þæt biscopseðl æt Lundenceastre.

b) then, it happened many years after he left Britain. The wine was expelled by that king from the presence of his bishop. He then went to Wulfer, king of the Mercians, and bought the bishop's vision.

c) Ne con ic noht singan; & ic forþon of þeossum geberscipe ut eode, & hider gewat, forþon ic naht singan ne cuðe.

c) I can't sing, so I left the holiday and went here.

In paragraphs b and c of Example 6, the verb "gewitan" did not express the meaning of the initial directional action. Because in both cases, the previous verb meant "exit." "Wæs adrifen of his biscopseðle" "was driven from his bishop's see" and "of þeossum geberscipe ut eode" "went out of this feast" expressed the purpose of the action. Another important piece of evidence is that the verb "gewitan" is used in conjunction with the infinitive (Example 7).

7 example:

a) Heo feðera onseoc, gewat fleogan eft mid lacum hire.

a) He fluttered his feathers and returned with his vows.

Ogura discusses this in more detail, and he points out that the verbs were used as auxiliary verbs, and that when combined with action verbs the meaning of "gewitan" seems to be weakened and absorbed into the meaning of the verb in the infinitive (Ogura, 2003; 69-78). As Vesser points out, with the Old English infinitive not only the verb "gewitan" but also under the "Go + infinitive", this combination includes a number of action verbs from Old English verbs, including "faran, færan, gān". (Vesser, 1969; §1317). This group of action verbs, none of which represents directional action verbs. It can be shown that the verb "gewitan" in this combination means not only "to go" but also "to go". In this process, the relationship between "go" and "infinitive" tends to change in later periods. Such a change often loses the meaning of action in space and is simply reduced to the aspect sign. Wulf has also addressed this issue (Wulf, 2006; 101-125).

Based on the above examples, it was concluded that the directional verbs used in Old English were mastered verbs and that most of them were not pure directional action verbs. The verbs "feorian, fyrsian / feorsian, wican, forlætān" used in Old English had additional meanings. This means that the verbs formed by the Old English word "feor" mean "far". The verb "wican" is also used in Old English to mean "power". In this case, the verb influenced the movement of the form, that is, it strengthened or weakened the movement. The Old English verb "forlætān" affected more space, and a semantic phenomenon took place. Apparently, no directional verbs were used as pure action verbs.

Sitora Mardonova,
English teacher of Samarkand state institute of foreign languages.

O'QUVCHI-YOSHLARNING TA'LIM-TARBIYASIGA BIRDEK MAS'ULMIZ

Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblar ichida eng sharafli o'qituvchilik va murabbiylikdir. Jamiyatda kasblar ko'p. Har bir inson o'z qiziqishlari, imkoniyatiga qarab kasb tanlaydi. Insonlar tanlagan kasb faqatgina moddiy jihatdan muhim sanalib qolmasdan, ayni vaqtda, butun umirini mazmunli tashkil etishlarini ham ta'minlaydi.

Shifokor bemorning tuzalib ketganligidan qanchalar xursand bo'lsa, nonvoy shirmoy nonlarining hididan sarmast bo'ladi. Quruvchilar bino qilgan imoratlaridan faxrga to'lsa, bog'bon o'stirgan gullaridan rohatlanadi.

O'qituvchilik kasbi ham jamiyatning barcha jabhalari uchun muhim o'rin tutuvchi kasblardan biri bo'lib, uning kelib chiqish tarixi qabilachilik davrlariga borib taqaladi. Insonlar jamoa bo'lib yashagan vaqtlarda ham yoshi ulug' oqsoqollar bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanishgan.



Barcha davrlarda har qanday jamiyat o'qituvchi, pedagog va tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida yuksak hurmat-ehtirom

ko'rsatib kelgan. Mustaqil yurtimizda ham ustoz-murabbiylarga hurmat-e'tibor juda katta. Xususan, mamlakatimizda 1-oktabr —

Zarina Nishonova,
Oqdaryo tumani
44-maktab psixologi.

"Ustoz va murabbiylar kuni" deb e'lon qilingani ham o'qituvchilarga ko'rsatilgan e'tiborning yorqin namunasi sanaladi.

Ushbu sharafli kasbning ham o'ziga yarasha mashaqqati bor. O'qituvchi jodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

Shuni aytish kerakki, o'qituvchilik kasbi alohida ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat a'zolarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgani uchun ham uning shaxslik sifatari kasbiy fazilatlaridan muhimroq hisoblanadi.

Hozirgi pedagogika fani o'qituvchining amaliyotchilik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik, vositachilik, ijrochilik singari vazifalari borligini qayd etadi. Ana shu vazifalarni to'liq uddalaydigan o'qituvchigina bugungi yosh avlodning barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsata oladi.

ANTARKTIDADAGI PINGVINLARNI KUZATISH BILAN SHUG'ULLANAYOTGAN KICKINTOY ROBOT



Mazkur loyiha doirasida imperator pingvinlaridan Antarktidadagi umumiy ekotizimning indikatorlari sifatida foydalaniladi. Olimlar pingvinlar iqlim o'zgarishiga qanchalik moslashayotganini hujjatlashtirib, global isish uchmaydigan dengiz qushlari

oziqlanadigan baliqlar soni va ularning taqsimlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishga urinmoqda.

Robot masofadan turib boshqariladi, unga lidarlari va avtonom navigatsiya uchun GPS texnologiya o'rnatilgan. Robot pingvinning RFID-belgisi harakati zonasiga — 86 santimetr radiusga kirishi bilan u qushning umumiy jisoniy va nasl qoldirish holati bo'yicha ma'lumotlarni, shuningdek, pingvin dengizdalgidiga okeanografik ma'lumotlarni oladi. Bundan tashqari, robot 360° darajaga burila oladigan kamera bilan ham jihozlangan. U olimlarga Exo duch keladigan alohida pingvinlarni aniqlashda yordam beradi, GPS ma'lumotlari esa qushning tabiatda tarqalganlik darajasini ko'rsatadi.

GERMANIYADAGI RESTORANLARDA ROBOT OFITSIANTLAR PAYDO BO'LDI

Germaniyadagi restoranlarda malakali ishchilar yetishmasligi tufayli robot ofitsiantlar tobora ko'payib bormoqda.

Manni nomli robot idishlarni stolga olib kelib, bo'sh idishlarni oshxonaga olib boradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, robot uchta xodimning ishini qiladi. U hech qachon kasal bo'lmaydi va dam olish kunlariga muhtoj emas.

Ofitsiant faqat buyurtmalarni qabul qilishi va tashrif buyuruvchilar bilan muloqot qilishi mumkin.



TOYOTA CAMRY 2023 TAQDIMOTI BO'LIB O'TDI



U Nightshade Special Midnight Black, White va Reservoir Blue ranglarida sotuvga chiqariladi.

Xaridorlarga standart 2,5 litrli to'rt silindrli dvigatel va 203, 310 ot kuchiga ega 3,5 litrli V6 dvigateli o'rtasida tanlov taklif etiladi. Barcha Toyota Camry 2023 sakkiz pog'onali standart uzatmalar qutisi bilan jihozlangan.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

INTELLEKT

Muassis:
Samarqand davlat chet tillar instituti

Bosh muharrir: Ilhomjon To'xtasinov

Tahrir hay'ati:
Fazliddin Ro'ziqulov (rais), Otabek G'aybullayev, Shaxobiddin Ashurov, Otobek Yusupov, Erali Rahmatov (a'zolar)

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida 2020-yil 22-iyulda 09-15 raqam bilan ro'yxatga olingan. Gazeta «Intellect» gazetasi tahririyati kompyuterida sahifalandi. «Sherdor plus poligraf» bosmaxonasida chop etildi. Korxonalar manzili: Samarqand shahri, 140100, Ulug' Tursunov ko'chas 82-uy. Qog'oz bichimi: A-2. Adadi: 1 000 Buyurtma: № _____

Bosishga topshirish vaqti:
Soat 18:00 da. 2022-y. 30-may
Bosishga topshirildi: soat 19:10 da
Bahosi kelishilgan narxda
Tijorat material

Bosh muharrir o'rinbosari:
Asilbek Abduraimov
Nashr indeksi: 5588